https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ChDPU Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Abdurasulov Jahongirmirzo

Jmra9923@gmail.com

INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA MOBIL MUTAXASSIS TAYYORLASH VA UNING NAZARIY JIHATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada, oliy ta’lim o‘quv yurtlari ta’lim muhitini pedagogik innovatsiya bilan muvofiqlashtirish, mobil ta'limni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik-psixologik omillarning xususiyatlarini takomillashtirish, yangi pedagogik vosita, usul, texnika, texnologiya va dasturlarni ta’lim tizimiga olib kirishning samarasi hamda innovatsion ta'lim muhitida talabalar koping strategiyasini faollashtirish asosida mobil mutaxassislar tayyorlashning psixologik-pedagogik mexanizmlari xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘z: Mobil mutaxassis, pedagogik innovatsiya, pedagogik-psixologik faoliyat, zamonaviy ta’lim, yangi tushuncha, innovatsion ta'lim muhiti, koping strategiya.

Аннотация: В статье рассматриваются психолого-педагогические механизмы подготовки мобильных специалистов на основе согласования образовательной среды высших учебных заведений с педагогической инновацией, совершенствования характеристик педагогических и психологических факторов формирования мобильного образования, эффективности внедрения в систему образования новых педагогических средств, методов, приемов, технологий и программ, активизации стратегий совладания студентов в инновационной образовательной среде.

Ключевые слова: Мобильный специалист, педагогическая инновация, педагогико-психологическая деятельность, современное образование, новая концепция, инновационная образовательная среда, копинг-стратегии.

Abstract: This article discusses the coordination of the educational environment of higher education institutions with pedagogical innovation, the

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

improvement of the characteristics of pedagogical and psychological factors serving to form mobile education, the effectiveness of introducing new pedagogical tools, methods, techniques, technologies and programs into the education system, and the psychological and pedagogical mechanisms for training mobile specialists based on activating students' coping strategies in an innovative educational environment.

Keywords: Mobile specialist, pedagogical innovation, pedagogical and psychological activity, modern education, new concept, innovative educational environment, coping strategy.

KIRISH

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotini turli innovatsiyalarning kiritilishisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Jamiyat taraqqiyotini belgilovchi eng asosiy kuch oliy ma'lumotli kadrlar hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'limda innovatsion muhitning yaratilishi bir tomondan yetuk va raqobatbardosh kadrlarni tayrlashga, ikkinchi tomondan esa talabalar mobil mutaxassislar bo‘lib shakllanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi va bu borada oliy o'quv yurtlariga bir qator yangi talablarni qo'yadi. Yana bir muhim jihati shundan iboratki, uning mohiyati, birinchi navbatda, oliy o'quv yurti bitiruvchisining mehnat bozori talablari va sharoitlariga mos kelishiga imkon beradigan zarur kompetensiyalarga ega bo'lgan mutaxassislarni sifatli tayyorlash zarurati bilan bog'liq.

Bundan, ta'lim jarayoni ham, ta'lim muhiti ham innovatsion bo'lishi kerak degan xulosa kelib chiqadiki, bo'lajak mutaxassisning kompetentsiyalarini shakllantirish shartlari an'anaviy hamda ta'limga innovatsion yondashuvlardan ham farqlanishi lozim.[2]

ADABIYOT TAHLILI VA METODOLOGIYASI

G.N. Krizhanovskaja fikricha, - “oliy o‘quv yurtlarida ta'lim jarayoni va ta'lim muhiti asosan: ta'lim, tarbiya, ta'lim va o'z-o'zini tarbiyalash jarayonlari majmuidan iborat ekanligini tushunish lozim bo‘lsa, o'qituvchi guruhdagi ta'lim va kognitiv jarayonni bevosita nazorat qiladi hamda talabalarning o'z-o'zini

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

tarbiyalash, o'z-o'zini takomillashtirish va kasbiy shakllanish jarayonini bilvosita boshqaradi" [8]. Bu yerda tadqiqotchi oliy ta'limning o'ziga xosligi haqida fikr yuritib, mazkur jarayonda talaba va o'qituvchining alohida amalga oshiradigan funksiyasi va ularning hamkorligi asosidagi funksiyalarini ochib bergan.

Ayrim, pedagog olimlar oliy ta'limda innovatsion ta'lim muhitini pedagogik innovatsiya bilan bog'lagan holda: - ta'lim muhitiga alohida shart-sharoitlar, tarkibiy qismlar hamda ta'lim tizimining xususiyatlarini takomillashtirishga xizmat qiladigan barqaror innovatsiyalarni kiritadigan ijobiy o'zgarishlar; - ta'limda yangilikni o'zlashtirish jarayoni ya'ni, yangi vosita, usul, texnika, texnologiya, dastur va boshqalar; - natijasi yuqori bo'lgan usul va dasturlarni ishlab chiqish, ularni o'quv jarayoniga joriy etish va ijodiy qayta ko'rib chiqishdan iborat jarayon deb hisoblaydilar [7].

Shuningdek, innovatsiyon ta'lim muhiti - bu "yangi ta'lim samarasini ta'minlaydigan pedagogik innovatsion faoliyat uchun yaratilgan sharoit hisoblanib, uning ta'limiy, tarbiyaviy, iqtisodiy, boshqaruv, ijtimoiy va boshqa jihatlari mavjud bo'ladi" [10]. Zamonaviy ta'lim jarayonini tashkil etishning yangi tushunchalari ichida bugungi kunda innovatsion ta'lim muhiti tushunchasi mavjud bo'lib mazkur masala sinonim sifatida qo'llaniladigan atamalarga ega, masalan, P.A.Kassina "ta'lim muassasasining innovatsion muhiti" atamasini qo'llab, uning ta'rifi "ta'lim muassasasida joriy etilgan innovatsiyalar majmui, ular orasida talaba va o'qituvchilarning kasbiy faoliyati amalga oshiriladi" [6].

G.N.Krijanovskaya, innovatsion ta'lim muhitini "sotsial muhit", "atrof-muhit" tushunchalarining ta'riflariga asoslanib, "shaxsning hohish istaklari, mayllari va ijtimoiy ehtiyojlari bilan uni o'rab turgan ma'naviy, axloqiy, madaniy va eng qulay ta'lim sharoitlariga mos holda shaxsni shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi" deb hisoblaydi [8].

NATIJALAR

Mazkur qarashda innovatsion ta'lim muhitini muallif rivojlanayotgan shaxsni o'rab turgan o'ziga xos ijobiy muhit sifatida talqin qilinib, ushbu pozitsiyani ayrim

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

tadqiqotchilar qo'llab-quvvatlaydilar va oliy ta’limda innovatsion ta'lim muhitini talabaning shaxsiy o'zini o'zi anglash omili [1], zamonaviy o'qitish texnologiyalari [4], pedagoglarning kasbiy rivojlanishining ajralmas vositasi [6] va pedagoglarning kasbiy rivojlanishini joriy etish omili sifatida qaraydi.


E.A.Shmeleva oliy ta’lim muassasasining ta'lim muhiti bilan bog'liq holda, "innovatsion muhitni shakllantirish yangi g'oyalarni yaratish, yangi mahsulotlar, texnologiyalarni yaratish, kasbiy sohada innovatsiyalarga tayyorlikning asosiy mezoni sifatida shaxsning innovatsion faolligini rivojlantirish, bilimlarning turli sohalarida fundamental va amaliy tadqiqotlarni rag'batlantirish uchun zarur bo'lgan innovatsion potentsialni rivojlantirishga qaratilgan muhitdir deb ta’kidlaydi [11].

Darhaqiqat, innovatsion ta'lim muhiti tushunchasini talqin qilishdagi xilma xillikka qaramay, tadqiqotchilar innovatsion ta'limning asosiy xususiyati an'anaviy ta'lim dasturiga innovatsion texnologiyalarni olib kirish, bo‘lajak kasbiy faoliyatga ijodiy yondashuvni shakllantirishga qaratilgan, shaxsiy ijodiy tajriba va axborotni mustaqil egallash uchun xizmat qiluvchi muhit deb baholanadi.

MUHOKAMA

Innovatsion ta'lim muhitida talabalar koping strategiyasini faollashtirish asosida mobil mutaxassislar tayyorlashning psixologik-pedagogik mexanizmlari yuzasidan olib borgan tadqiqot ishimizda Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida innovatsion ta'lim muhiti va mobil mutaxassislarni shakllantirish uzluksizligi va uzviyligi komponentlarini tahlini amalga oshirdik. 1-rasm.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026



1-rasm. Mobil mutaxassislarni shakllantirish uzluksizligi va uzviyligi.

Har qanday ta'lim muassasasida jumladan, oliy ta'lim muassasalarida ham innovatsion ta'lim muhitini yaratishning samarali vositasi bu loyihaviy ta'lim usuli ekanligi, ijodiy loyiha - mustaqil ijodiy ish bo'lib, uning natijasida muallif yangi mahsulot, dastur, model kabilarni yaratishi haqidagi ma'lumotlarni R.A.Kassina o‘z tadqiqotlarida asoslagan.

R.A.Kassina ta'lim muassasalarida talabalarning ijodiy loyihalarni amalga oshirishlari ularning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish hamda, individual qobiliyatlarni, shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlar hamda qiziqishlarni,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

shuningdek, talabalarning istaklari, moyilliklarini hisobga olib, yangi muammolarni hal qilish imkonini berishini e'tirof etgan [6] .

XULOSA

Oliy ta'lim amaliyotida innovatsion ta’lim muhiti bo‘lajak mutaxassislarning o‘z-o‘zini anglash sharti va uni yaratishda innovatsion ta’lim texnologiyalarining ahamiyati haqidagi munozalardan, agar innovatsion ta'lim muhiti bo'lajak mutaxassisni tayyorlash uchun eng ma'qul ta'lim sharoitlari to'plamidan iborat bo'lsa, u holda innovatsion ta'lim texnologiyasi "kafolatlangan natijani ta'minlaydigan harakatlar tizimi shaklida pedagogik jarayonning tarkibiy qismlarini ishlab chiqish va protsessual amalga oshirish" vazifasini bajaradi degan xulosaga kelish mumkin.” Oliy ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash bilan bog'liq ko'plab muammolarni hal qiladi va bu ta’lim jarayoniga an’anaviy va innovatsion yondashuvlar uyg‘unligi, ta’lim uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan uslubiy jihatdan asosli foydalanish bilan ta’minlanishi mumkin.

T.A.Fugelova oliy ta’lim muassasasining ijtimoiy-madaniy ta'lim makonida talabalarni mobil mutaxassislar qilib shakllantirish ularda kasbiy kompitensiyalar rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish mazmuni insonni doimiy rivojlanishga moyilligi bilab bog‘lab tushuntirish mumkimligini e’tirof etadi. Zero, kishi hayoti davomida ijtimoiy-madaniy makonda doimiy ravishda o'z o'rnini o'zgartirishga intiladi, bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga, bir mavzudan ikkinchisiga o'tib, aynan shu yo‘l bilan o'zining biografik maydonini yaratadi.

Ijtimoiy olamdagi mobillik, voqeylikdagi turli xil xodisalarning o'zgarmasligi tashabbuskorlik va mustaqillik, ijodkorlik va o'zini o'zi tasdiqlash, ijtimoiy va ijodiy yo'nalish erkinligi, baholash va imtiyozlar uchun maxsus shart-sharoitlarni yaratadi, bularning barchasi bo'lajak mutaxassisning professional mobilligini rivojlantirishga yordam beradi.[9]

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy mobilligi deganda talabaning ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlari, proektiv fikrlashi va professional ijodkorligining birligiga asoslangan integral shaxsiy yangi sifatlar majmui tushuniladi. Kasbiy mobillik kasbiy faoliyatdagi o'zgarishlar va yangiliklarga tayyorlik, bo'lajak mutaxassisning kasbiy mobilligini rivojlantirishning psixologik va pedagogik sharti ta'lim muhitida natijaviy ta'lim mexanizmlarini yetarli darajada tushunish va ularni amalga oshirish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alisov, Ye. A. Innovatsionnaya obrazovatelnaya sreda kak faktor samorealizatsii lichnosti [Tekst] / Ye. A. Alisov, /1. S. Podimova // Srednee professionalnoe obrazovanie. - 2011. - №1. - S. 6163.
2. Burenkova S.V. Innovatsionnaya obrazovatelnaya sreda kak uslovie samorealizatsii budущix professionalov Vestnik Sibirskogo instituta biznesa i informatsionnix texnologiy. 2015. №4 (16)
3. Zeer E.F., Kormilseva M.V. Sotsialno-lichnostnie kompetensii i professionalnaya mobilnost kak selevaya orientatsiya obrazovaniya // Sibirskiy pedagogicheskiy jurnal, 2009, №. 10, s. 72-78.
4. Kapshutar, M. A. Vozmojnosti inovatsionnix texnologiy v realizatsii aksiologicheskogo potensiala sotsialno-gumanitarnogo obrazovaniya [Tekst] / M. A. Kapshutar // Aktualnie voprosi ispolzovaniya innovatsionnix texnologiy v obrazovatelnom protsesse : Materiali Vserossiysk. nauch.-prakt. konf., Nijniy Tagil, Rossiya, 2012 g. - Nijniy Tagil: NTGSPA, 2012. - S. 109-114.
5. Kazakova, G.M. «Kulturnie geroi» Uralskoy provinsii: opit obobщeniya // Lichnost. Kultura. Obщestvo. T. 10. № 3-4 (42-43), 2008. S. 318-325.
6. Kassina, R. A. Innovatsionnaya sreda obrazovatelnogo uchrejdeniya kak integralnoe sredstvo professionalnogo razvitiya uchitelya [Tekst]: diss. ... kand. ped. nauk: 13.00.08 / Kassina Raisa Alekseevna. - Nijniy Novgorod, 2006. - 196 s.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

7. Silkin S.V. Upravlenie nauchno-innovatsionnim potensialom. Regionalniy aspekt. C. V. Silkin, L. P. Pachikova. - Yekaterinburg: UrO RAN, 2003. - S. 30.
8. Krijanovskaya, G. N. Upravlenie razvitiem innovatsionnoy obrazovatelnoy sredi. [Elektronniy resurs] / G.N. Krijanovskaya // Rejim dostupa: http://www.rane-brf.ru/conference/2012/kriganovskaya2.pdf.
9. Fugelova T.A.Psixologo-pedagogicheskie mexanizmi razvitiya professionalnoy mobilnosti budущego spesialista v sotsiokulturnom obrazovatelnom prostranstve vuza. JURNAL Russian Journal of Education and Psychology. №7 (51) 2015.
10. Chuchalin, A. G. Formirovanie kompetensiy vipusknikov osnovnix obrazovatelnix programm [Tekst] / A. G. Chuchalin // Visshee obrazovanie v Rossii. - 2008. - №12. - S. 10-18.
11. Shmeleva, Ye. A. Innovatsionnaya obrazovatelnaya sreda vuza: prostranstvo razvitiya [Tekst] / Ye. A. Shmeleva // Nauchniy poisk. - 2012.- №1(3). - S. 14-17.